

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



УО'К: 101.1

**ZAMONAVIY JAMIYATDA SHAXSIY XAVFSIZLIK VA DAXLSIZLIKNI TA'MINLASH
ZARURATI VA FALSAFIY ASOSLARI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЛИЧНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ И НЕДОСТУПНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ**

**THE NECESSITY AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF ENSURING PERSONAL
SECURITY AND INVIOABILITY IN MODERN SOCIETY**

Buzrukova Nigoraxon To'raxo'jayevna

Farg'onan viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'limi katta
inspektori

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlashni ijtimoiy falsafa doirasida tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy tahlili, raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlashning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы исследования обеспечения личной безопасности и недоступности в условиях цифровых технологий. Приводится социо-философский анализ обеспечения личной безопасности и недоступности в цифровых условиях и исследуются будущие задачи, связанные с этой проблемой. Также анализируются необходимость и философские основы обеспечения личной безопасности и недоступности в современном обществе.

Abstract

This article explores the theoretical and methodological foundations for researching the provision of personal security and inviolability in the context of digital technologies. It provides a socio-philosophical analysis of ensuring personal security and inviolability under digital conditions and examines the future tasks related to this issue. Additionally, the necessity and philosophical foundations of ensuring personal security and inviolability in modern society are analyzed.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, strategik ahamiyat, falsafiy xususiyat, shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlik, nazariy-metodologik asos.

Ключевые слова: цифровые технологии, законы, традиционализм и современность, сравнительный анализ, стратегическое значение, философские характеристики, личная безопасность и недоступность, теоретические и методологические основы.

Key words: digital technologies, laws, traditionalism and modernity, comparative analysis, strategic significance, philosophical characteristics, personal security and inviolability, theoretical and methodological foundations.

KIRISH

Uchinchilarning yillikda axborotlashtirish bilan bog'liqlikda yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlardan himoyalanish muammosi zamonaviy sharoitda alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasiga qator tadqiqot ishlari bag'ishlangan bo'lib, hozirda ham mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga ilmiy adabiyotlar tahlili axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini o'rganishning metodologik jihatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu nuqtai nazardan eng avvalo ko'plab mualliflar tomonidan ta'rif-tavsif berilgan "axborot", "xavfsizlik", "axborot xavfsizligi", "axborot xavfsizligi kompetentligi" atamalarining izohini aniqlashtirish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axborot xavfsizligi siyosatiga tahdidlarning namoyon bo'lishi, ijtimoiy beqarorlikni shakllantirishdagi o'rni va jamiyatni barqarorligini ta'minlashda to'g'ri axborot siyosatini shakllantirishning turli jihatlari D.Bell, A.Toffler, M.Kastels, U.Rostou, P.Druker, Dj.Gelbreyt, V.Inozemsev, F.Uebster, A.A.Chernov, R.F.Abdeyev, I.S.Melyuxin, A.Atamanov, O.M.Manjuyeva, M.Y.Zaxarov, Y.Y.Perchuk, O.I.Nemkina, Y.A.Kaptyug, O.M.Sidenova, A.V.Polikarpov, V.F.Nitsevich, S.Atamuratov, A.M.Abduvoxidov, N.Kamilov, A.Muxtarov, N.E.Muxammadiyev, I.Saifnazarov, R.Samarov, N.A.Shermuxamedova, M.Yoqubovalar tomonidan o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Axborot" tushunchasi ilmiy muomalaga 1928-yilda amerikalik olim R.Xartli tomonidan texnik aloqa kanallari bo'ylab tarqatilyvchi ma'lumotlarni miqdoriy o'Ichash mezonini belgilash uchun kiritilgan. Hozirda bu atama har xil ma'nolarda qo'llanilmoqda. Axborot ayrim (maishiy) hollarda odamlar tomonidan beriladigan ma'lum narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot, ba'zida (kibernetika) - tartibga solingen o'zgartirish, tizimning tashkil etilganlik o'Ichovi, boshqa vaziyatda obyektlarning rang-barang jihatlapini ifodalash, aks ettirish tushuniladi. Axborotning mohiyatiga nisbatan qarashlarning ko'pligiga qaramay, bu tushunchaga hanuzgacha aniq umum e'tirof etilgan ta'rif berilgani yo'q, ba'zan bunday ta'rifni berish mumkin emas, degan fikrlar ham uchramoqda. Masalan, T.Stounyerning fikriga ko'ra, "biz o'zimiz axborotlashgan jamiyat deb ataydigan jamiyatda yashashimizga qaramay, axborot nimaligini bilmaymiz". Shunga ko'ra, quyida "axborot" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishga harakat qilamiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida "axborot" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Axborot – (lotincha "information" – tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq esa yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma'lumotdir. Demak, axborot haqidagi ta'riflarni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin: bu keng doiradagi tushuncha bo'lib, borliqdagi jamiki obyektlar, mavjudodlar, jarayonlar xaqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga axborot odamlar o'rtasida uzatiladigan ma'lumot, xabar, yangiliklarlar hamdir.

Buguni kunga kelib, axborot ishlab chiqarishni rejorashtirish va boshqarish hamda iqtisodiy taraqqiyot sifatini yuksaltirish, umuman ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari uchun katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu axborotning ijobiy tomoni albatta, biroq axborotning salbiy jihatni ya'ni zararli tomoni ham borki, u nafaqat inson hayoti va kelajagiga tahdid soluvchi hisoblanadi, balki jamiyat hayotini ham izdan chiqaradi. Masalaning ana shu ikki tomonini hisobga olib, axborotlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy foydali axborotlar.
2. Zararli axborotlar.

Ijtimoiy foydali axborotlar jamiyat va insonlar baxt saodatini rivojlantirish, boyitish hamda mehnat unumdarligini oshirish, tinchlikni ta'minlash kabi buyuk ishlarni amalga oshirsa, zararli axborotlar esa -bo'zg'unchilik, vayronkorlik, jamiyat va insonlar hayotini izdan chiqarish, tinchlikka putur yetkazishga qaratilgan axborotlardir.

Taniqli olim N.N.Moiseyevning fikricha, "axborot tushunchasini faqat jonli tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni tavsiflashda qo'llash, bu tushunchani subyekt-obyekt munosabatlari bilan bog'lash o'pinli bo'ladi, zotan, "axborot" tushunchasini ta'riflab bo'lmaydi, uni faqat tavsiflash mumkin". Ammo bizning nazarmizda, bu qapashlap axborotga keng falsafiy nuktai nazardan, uni aks ettirish bilan bog'lash, axborotga rang-baranglikni ifodalash (aks ettirish) deb, in'ikosning obyektiplashishi mumkin bo'lgan asosiy qicmi yoki jihatni deb tushunish imkonini beradi. Tabiiy myhitda moddiy tashuvchi yordamida amalga oshiriladigan axborot, fizikaviy jarayon hicoblanmaydi, chunki uzatiluvchi ayni bir signallarning fizik tabiatini hap xil bo'lishi va myhim rol o'ynamacligi mumkin. Axborot moddiy tashuvchiga bog'liq bo'lmaydi.

Falsafiy nyqtai nazardan olib qapaganda, axborot, bopliqning alohida tipidir. Zero, axborot bu materiya ham, energiya ham emas, balki axborotdir; axborot pyh yoki subyektivlik emas, balki axborotdir.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, axborot bu oqilona foydalanish

ILMIY AXBOROT

uchun muayyan shaklga solingen ma'lumotlardir. O'z navbatida, axborot bloklaiini tegishli tarzda ishlov berish yo'li bilan yaxlit bilim koppysiga aylantipish mymkin.

Hozirgi vaqtida "axborot tahdidi", "axborot xuruji" tushunchalaridan ilmiy iste'molda keng foydalaniilmoxda. Mazkur tushunchalar etimologiyasiga e'tibor qaratilsa, ularni sinonim sifatida qo'llash mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Tarixiy manbalarda "xuruji" so'zi kengroq qo'llanilgan. O'z mohiyati bilan "xuruji" atamasi Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobida ham uchraydi, ya'ni, "Xuruj kunlari qilgan beshinchchi kengashim", "Xuruj vaqtida qilgan oltinchi kengashini", "Xuruj kunlari qilgan yettinchi kengashim" sarlavhali bitiklarda g'animplarning qay tariqa xuruj qilishgani va unga qarshi ko'rilgan tadbirlar bayon etiladi. Hamisha jaholatga qarshi ma'rifat yo'lini tanlagan Sohibqiron bir o'rinda shunday yozadi: "G'animplarni chuchuk so'z, shirin hikoyatim bilan o'z tomonimga egmoqchi va ular vujudidagi yondiruvchi (g'azab) o'tini to'g'ri tadbir suvi bilan o'chirmoqni maslahat ko'rdim. Shu tarzda ularni rom qilmoqchi bo'ldim". Demakki, o'sha davrda ham mamlakat tinchligi va osoyishtaligiga xuruj qilingani hamda unga qarshi kurashda qanday yo'il tutilganini ham shunday manbalar orqali bilish mumkin.

Axborot xuruji yoki tahdidi – bu axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari xavf tug'diruvchi sharoit va omillar yig'indisidir.

Axborot xurujlariga qarshi xavfsizlikni ta'minlash masalasi barcha sohalarda ham muhim sanaladi. Epikur xavfsizlik tushunchasini inson va tabiat uyg'unligi bilan aloqadorlikda tavsif etgan. T.Gobbs xavfsizlikni ikki ezgu amalda ko'radi: imon va qonun.

Xavfsizlikning umumiy nazariyasi tadqiqotining obyekti va predmeti sifatida individning o'z xavfsizligi hamda yashash sharoiti xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyati yotadi va u umumiyligi, tabiiy texnika fanlari tomonidan yaratiladi.

Umumiy, tabiiy va texnika fanlarida xavfsizlik hamda uning shakllari o'z tabiatiga ko'ra mustaqil yo'nalishga ega. Siyosiy, iqtisodiy, ekologik, axborot, harbiy va boshqalarning xavfsizlik aspektlari ko'pincha umumiy fanlar tomonidan ishlab chiqiladi. Umumiy nazariyani shakllanishida ularning har biri o'z ulushini qo'shami. Umumiy nazariyani yaratish uchun obyektiv shart-sharoitlar quyidagilar:

1. Individ, tashkilot, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va dunyo hamjamiyati tomonidan xavfsizlik nuqtai nazaridan o'zini saqlanishi va rivojlanishi uchun talabning qo'yilishi;
2. Individ va umuman insoniyatning muhim yashash obyektlarini tahdidlardan saqlash uchun xavfsizlik tizimini yaratilishi;
3. Ommaviy salbiy ta'sirlarga qarshi tura oluvchi xavfsizlikning modernizatsiyalashtirilgan tizimini yaratish bilan bog'liq.

Xavfsizlikning subyekti sifatida inson qaralishi, uni obyekti sifatida tabiat, texnika vositalar, ko'chmas mulk, fuqarolarning huquqiy va qonuniy manfaatlari, jamiyat, davlat qaralishi mumkin. Bitta shaxsning o'zi xavfning ham subyekti ham obyekti bo'lishi mumkin.

"Chembers lug'ati"da "xavfsizlik" tushunchasini "holat, xavfsizlikka keltiruvchi vositalar yoki sezgi" deb talqin qilingan. Mazkur tushuncha "besaranjomlilik, tashvishlilik", "ishonch", "barqarorlik"ning yo'qolishi bilan bog'lab tushuntirilgan.

Zamonaviy adabiyotlarda "xavfsizlik" tushunchasi obyektning o'z funksiyalarini cheklashi va o'zining ichki qonunlari asosida rivojlanadigan shart-sharoitlar va omillar tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xavfsizlik individ yoki jamiyatga xavf-xatar tug'diruvchi shart-sharoit va omillardan himoyalanish tarzida ham tavsif etiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, "xavfsizlik" tushunchasiga berilgan ko'plab ta'riflar olimlar va amaliyotchilar tomonidan tanqidga uchramoqda. Bizningcha, ko'plab ta'riflarda anqlik yetishmasligining asosiy sababi tushunchaga ta'rif berishda xavfsizlikning dialektik ziddi hisoblangan xavfning hisobga olinmasligi bilan bog'liq. Aynan xavf-xatarning yuzaga kelish sabablarini o'rganish "xavfsizlik" tushunchasiga aniqroq ta'rif berish imkonini beradi. G.A. Atamanov ta'kidlab o'tganidek, xavfsizlik uning hosilasi sifatida xavf-xatar bilan aloqadorlikda mazmun kasb etadi. Muallifning fikricha, "xavfsizlik" ichki va tashqi ta'sirlarning mavjudligi sharoitida tizimning hayotiy mavjudlik mexanizmining buzilishiga doir obyekt holatini ifoda etadi. Uning har qanday tahdidni xavf-xatar sifatida qabul qilishi o'rini bo'lmaydi, xavfsizlik xavf-xatarni yengib o'tish natijasida yuzaga keladi.

XULOSA

Bugungi kunda xavfsizlikning turli ta'riflari mavjud bo'lib, ularning mualliflari turli mezonlarga asoslanadi. Ba'zan "xavfsizlik – holat, rivojlanishning an'analari va hayot faoliyatining shartlari..." deb tasavvur qilishadi. Bundan tashqari, agar xavfsizlik innovatsiyalar progressini chegaralaydigan bo'lsa, u holda u turg'unlik faktoriga, konservativizmga, regressga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik tizimi nafaqat son yoki sifat jihatdan o'zgarishlarga to'sqinlik qilishi, balki jamiyat va shaxs uchun zarar keltirmagan holda eski shakllarni oshib o'tishga yordam qilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J.M. Wing. Computational Thinking // Communications of the ACM. 2006, March. Vol. 49. № 3. P. 33–35.
2. S.K.Cansu, F.K. Cansu. An Overview of Computational Thinking. International Journal of Computer Science Education in Schools, April 2019, Vol. 3, No. 1
3. Абдуллаев Ж.С. Переход к информационному обществу и становление ноосфера (философско-методологические аспекты). Дисс. канд.филос.наук., -М., 1993
4. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, -С. 43.
5. Мукашева М.У., Паевская Е.В. Семантическое влияние программирования на развитие мышления обучающихся: предпосылки, исследование и перспективы. – “Открытое образование”, Т. 24. № 1. 2020. С. 46-53, 46 стр.3
6. Пахрутдинов Ш.И. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Тошкент: «Akademiya», 2006
7. Ursul A.D. Информационная стратегия и безопасность в концепции устойчивого развитии // Научно-техническая информация. Серия 1: Организация и методика информационной работы. 1996, №1, С.7.
8. Хашимова Д, Парпиева Р. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.–Б. 151-152
9. Хеннер Е.К. Вычислительное мышление. Образование и наука. 2016. № 2 (131). С. 18-33.